

"Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor"

Shahrimizdagi iqtisodiyot kollejida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 3271-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" mavzusida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Marg'ilon shahar bo'linmasi, filologiya fanlari doktori, professor Siddiq Mo'min, umidli yosh ijodkor Muazzam Toshmatova lar ishtirok etishdi. Tadbir davomida kollej axborot resurs markaziga keltirilgan 13 nomdagi yangi adabiyotlar takdimoti bo'lib o'tdi. Uchrashuv nihoyasida tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilar faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.







2018-03-15 21:14:34